



**QASHQADARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QASHQADARYO VILOYATINING SANOAT  
ISHLAB CHIQARISHI**  
**2021- YIL YANVAR-OKTABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)**

Sanoat statistikasi bo'limi  
Tel.: (75)-221-32-36

## Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 14 950,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 115,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (64,9 %) ni tashkil etdi.



**B**-Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat, **D**-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oshishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 69,3 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatning – 10,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 10,0 % ga o'sish kuzatildi.

Shuningdek tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash sanoatida – 5,6 % ga pasayish kuzatildi.


\***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tafsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1579,9 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,6 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, % da



### Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagি sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


#### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da



**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari  
tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Tabiiy qum, ming t.	129,9	90,8	-39,1
Neft, ming t.	24,5	22,0	-2,5
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	2050,3	1208,2	-842,1
Gaz kondensati, ming t.	231,1	125,9	-105,2
Chaqiq tosh, ming t.	179,0	69,3	-109,7
Propan va butan, ming t.	117,4	113,0	-4,4

**Ishlab chiqaradigan sanoat**



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 9 703,6 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 64,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2020-yilning yanvar-oktabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 20,0 % (20,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 2,9 % (3,7 %) va quyi texnologiyalisi – 41,9 % (45,2 %) ni tashkil etdi.

<b>Yuqori texnologiyali</b>	<b>O'rta-yuqori texnologiyali</b>	
<b>Ulushi % da</b>	<b>Ulushi % da</b>	
0,1	2020- y.	20,9
0,1	2021- y.	20,0
<b>O'rta-quyi texnologiyali</b>		<b>quyi texnologiyali</b>
<b>Ulushi % da</b>	<b>Ulushi % da</b>	
3,7	2020-	45,2
2,9	2021-	41,9

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoatining ulushi – 0,4 % (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,4 %), to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,6 % (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 142,1 %), kiyim ishlab chiqarishning ulushi – 2,7 % (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 95,8 %), oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,3 % (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 93,1 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 19,9 % (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,2 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-oktabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 86,3 ming tonna paxta chigit (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 147,4 %), 58,0 ming tonna paxta tolasi (148,7 %), 26,4 ming tonna Paxtadan yigirilgan ip (123,6 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.





2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 111,0 ming tonna Og'irligi 0,94 dan kam bo'Imagan polietilen (2020- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 101,9 %), 26,4 ming tonna Paxtadan yigirilgan ip (123,6 %), 2,2 ming tonna Polotno (150,3 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari  
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Og'irligi 0,94 dan kam bo'Imagan polietilen, ming t.	109,0	111,0	2,0
Asfaltli aralashmalar, ming t.	64,0	37,5	-26,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	127,9	121,5	-6,4
Paxta tolasi, ming t.	36,4	58,0	21,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	6,5	2,3	-4,2
Kaliy xlорid, ming t.	169,2	159,7	-9,5
Plastmassa quvurlar, ming t.	4,0	4,1	0,1
Paxtadan yigirilgan ip, ming t.	21,4	26,4	5,0
Oltin gugurt, ming t.	0,8	0,9	0,1

## Metallurgiya sanoati

(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)





Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,3 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 13,6 % ga pasaygan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,4 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 22,4 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 54,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,6 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,9 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 15,9 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 284,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,9 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 2432,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(2021- yil yanvar-oktabr oylarida)





Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 174,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,6 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 8,8 % ga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 85,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.


## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2020- yilning yanvar-oktabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 104,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,6 % ni, fizik hajm indeksi 42,1 % ga o’sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 3229,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Kiyim ishlab chiqarish sanoati (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)




2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 101,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % fizik hajm indeksi 95,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 409,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 20,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 26,8 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 19,9 % ni, fizik hajm indeksi 104,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2967,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish (2021- yil yanvar-oktabr oylarida)

2020- yilning yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 9,0 % ga oshgan.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 2,2 martaga o'sdi hamda ishlab chiqarish hajmi 24,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash


2021- yilning yanvar-oktabr oylarida



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3550,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (23,7 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 69,3 % ga oshganligi kuzatildi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	7765,9	10824,1	3058,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2552,8	2602,4	49,6

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 116,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 10,0 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-oktabr	2021- yil yanvar-oktabr	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	0,7	9,5	8,8
Suvga ishlov berish va SUV quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	28,4	46,0	17,6

O'tgan yilning mos davriga nisbatan Suvga ishlov berish va SUV quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 62,2 % ga shuningdek, Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 12,5 martaga o'sishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3574,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 100,3 % ga, uning jami sanoatdagi ulushi 23,9 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,3 % (2020- yil yanvar-oktabr oylarida 4,0 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 24,2 % ni, shuningdek, Chiroqchi tumani 13,6 % ni, Yakkabog' tumanida 8,0 % ni Shahrисабз tumani 8,1 % ni, hamda Koson tumani 7,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (100,3 %) darajasidan ko'p G'uzor tumani (108,4 %), Nishon tumani (105,7 %), Kitob tumani (105,0 %) va Qarshi shahrida (105,0 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chigarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
**2021- yilning yanvar-oktabr oylarida**

	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
3574,9	100,0	100,3	863,4	24,2	105,0		
<b>Qashqadaryo viloyati.</b>							
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
251,5	7,0	97,0	82,9	2,3	108,4		
<b>Shahrisabz sh.</b>							
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
75,5	2,1	93,8	142,0	4,0	98,1		
<b>Dehqonobod</b>							
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
171,1	4,8	97,1	284,2	7,9	91,5		
<b>Qarshi</b>							
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
227,0	6,4	105,0	113,7	3,2	96,4		
<b>Kitob</b>							
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
65,6	1,8	103,0	154,5	4,3	105,7		
<b>Muborak</b>							
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
80,8	2,3	99,0	487,5	13,6	102,2		
<b>Kasbi</b>							
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
289,2	8,1	96,7	285,9	8,0	98,0		
<b>Shahrisabz</b>							

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 21,6 % shuningdek, Chiroqchi tumani 15,1 %, Shahrisabz tumani 8,2 % ni, hamda Koson tumani 8,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida (112,3 %), G'uzor (110,7 %), Nishon (110,0 %) hamda Shahrisabz shahrida (106,9 %) qayd etildi.

### Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-oktabr oylarida

	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	1 289,6	100,0	104,9		278,5	21,6	112,3
<b>Qashqadaryo viloyati.</b>				<b>Qarshi sh.</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	75,8	5,9	106,9		34,5	2,7	110,7
<b>Shahrisabz sh.</b>				<b>G'uzor</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	30,0	2,3	93,8		49,9	3,9	98,0
<b>Dehqonobod</b>				<b>Qamashi</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	71,2	5,5	105,2		105,9	8,2	96,9
<b>Qarshi</b>				<b>Koson</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	81,2	6,3	106,9		47,4	3,7	99,7
<b>Kitob</b>				<b>Mirishkor</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	26,7	2,1	103,9		66,7	5,2	110,0
<b>Muborak</b>				<b>Nishon</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	33,1	2,6	98,9		195,2	15,1	105,4
<b>Kasbi</b>				<b>Chiroqchi</b>			
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	105,2	8,2	97,7		88,6	6,9	106,6
<b>Shahrisabz</b>				<b>Yakkabog'</b>			

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 25,6 % ni, shuningdek, Chiroqchi tumani 12,8 % ni, Yakkabog' tumani esa 8,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Yakkabog' tumani (112,4 %), G'uzor (106,8 %) Kitob (104,0 %), hamda Nishon (102,6 %) tumanlarida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**  
**2021- yilning yanvar-oktabr oylarida**

	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	2 285,3	100,0	98,6		584,9	25,6	101,8
<b>Qashqadaryo viloyati.</b>						<b>Qarshi sh.</b>	
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	175,7	7,7	90,2		48,4	2,1	106,8
<b>Shahrisabz sh.</b>						<b>G'uzor</b>	
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	45,6	2,0	93,7		92,1	4,0	98,2
<b>Dehqonobod</b>						<b>Qamashi</b>	
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	99,9	4,4	92,0		178,3	7,8	88,6
<b>Qarshi</b>						<b>Koson</b>	
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	145,9	6,4	104,0		66,3	2,9	94,3
<b>Kitob</b>						<b>Mirishkor</b>	
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	38,9	1,7	102,3		87,8	3,8	102,6
<b>Muborak</b>						<b>Nishon</b>	
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	47,7	2,1	99,0		292,4	12,8	100,1
<b>Kasbi</b>						<b>Chiroqchi</b>	
	<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mird. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	184,0	8,1	96,1		197,3	8,6	112,4
<b>Shahrisabz</b>						<b>Yakkabog'</b>	

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidaǵı korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

## *2021- yilning yanvar-oktabr oylarida*


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 2069,5 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 13,8 % ni tashkil etdi.

# Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari 2021- yilning yanvar-oktabr oylarida

## *2021- yilning yanvar-oktabr oylarida*

**Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida ishlab  
chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari  
ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da**



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Kasbi (2020- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 170,6 % ), Nishon (150,3 %), Mirishkor (132,5%), Qarshi (132,1 %), Qarshi sh. (121,6 %) va G'uzor (110,4 %) tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

**Qashqadaryo viloyati jami sanoat  
mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**













Viloyat sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko'p ulush Nishon (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 25,2 % i) hamda G'uzor (18,5 %), Qarshi sh. (15,6 %), Kasbi (5,7 %) va Qarshi (5,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Shahrisabz shahri (1,9 %) hamda Kitob tumaniga (2,0 %) to'g'ri kelmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (24018,0 ming so‘m), G‘uzor (13219,9 ming so‘m), Qarshi shahrida (8291,8 ming so‘m) hamda Muborak (4488,5 ming so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (4446,8 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

*2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, ming so‘m*


	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	4446,8	1063,3		8291,8	3079,2
<b>Qashqadaryo viloyati</b>					<b>Qarshi sh.</b>
	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	1964,5	1778,5		13219,9	395,8
<b>Shahrisabz sh.</b>					<b>G‘uzor</b>
	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	3362,1	500,3		1397,0	513,0
<b>Dehqonobod</b>					<b>Qamashi</b>
	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	3304,8	670,9		2351,4	969,6
<b>Qarshi</b>					<b>Koson</b>
	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	1100,2	846,9		3120,6	927,9
<b>Kitob</b>					<b>Mirishkor</b>
	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	4488,5	737,3		24018,0	984,7
<b>Muborak</b>					<b>Nishon</b>
	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	4260,5	401,2		1398,1	1149,1
<b>Kasbi</b>					<b>Chiroqchi</b>
	Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari		Sanoat mahsulotlari	Istemol mahsulotlari
	1686,6	1285,5		1783,1	1067,3
<b>Shahrisabz</b>					<b>Yakkabog‘</b>

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 1063,3 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi sh. – 3079,2 ming so'mni, Shahrisabz sh. – 1778,5 ming so'mni, Shahrisabz tumanida – 1285,5 ming so'mni tashkil etdi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi  
2021- yilning yanvar-oktabr oylarida, % da**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 921,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiyligi ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 26,2 % ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 99,8 %), Chiroqchi (83,4 %), Shahrisabz (82,3 %), Yakkabog' (81,5 %) tumanlarida va Shahrisabz shahrida (78,4 %) kuzatildi.



Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Nishon (4,3 %), G'uzor (5,6 %), Kasbi (9,5 %) va Dehqonobod (15,2 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**  
**(2021- yil 1- noyabr holatiga ko'ra)**

Bugungi kunda viloyatda 4813 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 905 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,8 % i) Qarshi shahriga, 522 tasi (10,8 %) Kitob tumaniga, 441 tasi (9,2 %) Yakkabog' tumaniga, 433 tasi (9,0 %) Chiroqchi tumaniga, 372 tasi (7,7 %) Shahrisabz shahriga, 347 tasi (7,2 %) Qarshi tumaniga to'g'ri kelmoqda.



2021- yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 1242 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 216 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 17,4 %) Qarshi shahrida, 122 tasi (9,8 %) Chiroqchi tumanida, 112 tasi (9,0 %) Yakkabog' tumanida, 106 tasi (8,5 %) G'uzor tumanlarida tashkil etildi.